

## ANVARSHOH KASHMIRIYNING «FAYZUL BORIY» ASARI VA UNING HOSHIYALARI TAHLILI

*Olimov Zuhrobiddin*

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistranti*

**Annotatsiya:** ushbu ilmiy maqolada Anvarshoh Kashmiriyning «Fayzul boriy» asari va uning hoshiyalari tahlili haqida qimmatli ma'lumotlar, ilmiy tahlillar berilgan.

**Kalit so'zlar:** usulul hadis, kalom, naql, hifzi komil.

Muhammad Zakariyo sohib shunday deb aytadilar: “Men aytamanki, Hofiz ibn Hajar o‘zlarining “al-Isoba” kitobarining muqaddimasida shunday deganlar: “Nabaviy hadis ilmi diniy ilmlar ichida eng sharaflilardir. Mana shu ilm ichida eng ulug‘ ilm deb sanaluvchi ilm, Rasululloh sallollohu alayhi vasallamning sahobalarini ulardan keyingi tobeinlardan ajratish ilmidir. Bu borada bir nechta hofizlar tasnifotlar yozganlar. Mana shu tasnifotlar orqali siz barcha sahobiyalar haqida ma'lumotlar olishingiz mumkin. Mening bilishimcha ushbu ilm borasida birinchi kitob tasnif qilgan zot Abu Abdulloh Buxoriydir. Bu borada alohida kitob yozganlar. Abulqosim Bag‘aviylar ham shu kitobdan naql qilishgan, deyiladi”. Bundan tashqari yana sahobalar haqida yozilgan kitoblarni ko‘plab sanashimiz mumkin.

Mana shunday mullafotlardan biri “Kitob ul-Vuhdon” asaridir. Hofiz ibn Hajarning “Muqaddimatul fath”dagi gaplaridan mana shu kelib chiqadiki, u kishi shunday zikr qiladilar: “Ibn Manda Buxoriyning “Vuhdon” kitobidan naql qiladi: “Vuhdon – faqatgina bitta hadis rivoyat qilgan sahobadir”. Bu gapdan ko‘rinib turibdiki, “Vuhdon” Imom Buxoriyning kitobi, Ibn Manda esa bu kishidan naql qilganlar. “Ithof” kitobining mualliflari ham “Vuhdon” kitobini Buxoriyning talifotlari qatorida sanaganlar. Bundan tashqari kitoblarning nomlarini bayon qilishda Imom Muslimning ham (Ya’ni Imom Muslimning ham shu nomli kitobi bor), Imom Buxoriyning ham “Kitob ul-Vuhdon” asarlarini sanab ketganlar. Yana bir bor eslatib o‘tamiz “Vuhdon bittadan boshqa hadis rivoyat qilmagan sahobadir”.

“Kashf az-Zunun” kitobida shunday zikr qilinadi: “Kitob ul-Vuhdon” Imom Muslimga ham, Imom Buxoriyga ham tegishlidir. Ya’ni ikkalalarining shu nomli asarlari bor. Vuhdon bittadan ortiq hadis rivoyat qilmagan sahobiydir”. “Kashf az-Zunun”dagi gap tugadi.

Imom Suyutiy rahmatullohialayhi ham quyida shu gaplarni aytganlar. Ammo Imom Qastaloniy rohimahulloh Ibn Mandani “Ma’rifa” kitoblaridan naql qilganlaridan so‘ng shunday fikr bildiradilar: “Ibn Manda o‘zining “Kitob al-Vuhdon”ida Imom Buxoriydan naql qilgan, vuhdon bu bittadan ortiq hadis rivoyat qilmagan sahobadir”. (Imom Qastaloniyning gaplari tugadi)

Bu gapning zohiridan ma'lum bo'lyabdiki, "Kitob ul-Vuhdon" Ibn Mandaga tegishli bo'lib, shu kitobni ichida Imom Buxoriy "Kitob Usoma as-Sahoba" kitoblaridan naql keltirilgan. Qastaloni o'z gaplarini quvatlab shunday deydilar: "Ta'qriyb", "Nuxba", "Alfiyatul Iroqiy" va boshqa usulul hadis kitoblarini yozgan shaxslar faqatgina Imom Muslimni "Kitob ul-Vuhdon"larini zikr qilib o'tganlar. Agar Buxoriyning ham shunday kitoblari bo'lganda, albatta uni ham zikr qilishgan bo'lishardi". Kitoblardan "Vuhdon"ni zikr qilish jarayonida bunga yana alohida to'xtalib o'tamiz.

Yana Imom Buxoriyning muallafotlaridan "Kitob al-Mabsut" asari. Xoliliy "Irshod"da Buxoriy shu kitoblari borligini aytganlar. Muhiyb ibn Salim Imom Buxoriydan shu kitobni naql qilganlar.

Yana bir kitob "Kitob al-Ilol" Abulqosim ibn Manda shu kitob haqida yozganlar va Muhammad ibn Abdulloh ibn Hamdudan u esa Abu Muhammad Abdulloh ibn SHarqiydan u kishi esa Buxoriydan shu kitobni rivoyat qilgan.

Yana bir tasnifotlari "Kitob al-Kuna" Hokim Abu Ahmad shu kitob borligini zikr qilib shu kitobdan shu kitobdan naql qilganlar. (Muallif aytadilar: "SHu kitob Haydarobodagi bosmaxonada nashrdan chiqqan")

Yana bir kitob Imom Termiziy o'zlarining jomi'larida, manoqib bobida zikr qilib o'tgan "Favoid" kitobi. Bu asar ham Imom Buxoriy musannifotlaridan deyiladi. Imom Termiziy Tolha roziyallohu anhuning manoqiblarini aytib o'tish jarayonida ushbu "Favoid" kitoblariga to'xtalanganlar. Imom Termiziy aytadilar: "Muhmmad Ibn Ismoildan eshitdimki, u kishi shu hadisni Abu Kuraybdan rivoyat qilganlar va "Favoid" kitoblarida ham buni keltirib o'tganlar".

Demak, shu joygacha "Muqaddimtul fathul boriy"dagi gaplar ba'zi bir ziyodaliklar bilan keltirib o'tilindi. Alloma Qastaloni va boshqalar ham Imom Buxoriyning muallafotlarini zikr qilish jarayonida "Fathul Boriy"ning muqaddimasidagi gaplarni keltirib, Ibn Hajar Asqaloniya ergashganlar.

Mashoyixlarimiz shayxi SHoh Valiyulloh Dehlaviy o'zlarining "Tarojim"larinig avvalida aytadilarki: "Ahli hadis hadis ilmi borasida kitob yozganlarida uni to'rtta fan borasida devon qilganlar. Birinchisi, sunnat fani Ya'ni fiqh fani bunga misol Imom Molikning "Muvatto"si, Sufyonning "Jome'"si bo'lgan. Ikkinchisi, tafsir fani bo'lgan masalan, Ibn Jurayjning "Tafsir"i. Uchinchisi, siyrat fani bo'lgan bunga Muhammad ibn Is'hoqning kitobi misol. To'rtinchisi, zuhd va riqoq fani bo'lgan bunga Ibn Muborakning kitoblari misol bo'la oladi. Imom Buxoriy mana shu to'rtta fanni bir kitobda jamlashni maqsad qildilar. Imom Buxoriy kitoblarida o'zidan oldingi va zamonasidagi ulamolar sahih deb hukm qilgan hadislarni keltirdilar. Va marfu', musnad hadislarni, shuningdek ba'zi bir osorlarni ham keltirib o'tganlar. Lekin bu osorlar asl tarda keltirilmagan, balki yuqoridagi hadislarga tobe shaklda naql qilingan. SHuning uchun o'zlarining kitoblarini "Al-Jome' as-Sahih al-Musnad"

deganlar. Va yana Imom Buxoriy o'zlarining harakatlarini Rasululloh sallollohu alayhi vasallamning hadislaridan hukmlar istinbot qilishga ham qaratganlar. Har bir hadisdan ko'pgina masalalarni istinbot qilib chiqarganlar. Kitobdagi bu yo'nalish, o'zidan oldin boshqalar tomonidan qilinmagan ishdir. Bu zot yana hadislarini har xil boblarga bo'lib tarqatishni juda ajoyib tarzda keltirganlar. Boblarni tarjimalarida istinbot qilish sirlarini ham qo'shib ketganlar. Bundan ma'lum bo'ladiki, Imom Buxoriyning asosiy maqsadlaridan biri istinbot qilish ham bo'lgan. SHuning uchun ulug' zotlarning "Buxoriyning fiqhi tarojimlardadir Ya'ni sarlavhalardadir", degan gaplari mashhur bo'lib ketgan.

Qastaloniy o'zlarining Abu Fazl Muhammad ibn Tohir Maqdisiygacha bo'lgan sanadlari bilan aytadilar: "Muhammad ibn Tohir Maqdisiy o'zlarining "SHurut al-Aimmati as-Sitati" kitoblarida shunday deydilar: "SHuni bilingki, Buxoriy, Muslim va ulardan keyin biz zikr qilib o'tgan to'rt sunan sohiblari Ya'ni bu zotlarning hech biri "Men kitobimda falon shartga ko'ra hadis rivoyat qilishni shart qilganman", deb aytishmagan, balki bu narsa ularning kitoblarini o'rganish jarayonida ayon bo'lgan holatdir Ya'ni kitobning siyoqidan bilingan amalyotdir. Barcha imomlarning hadis jamlashdagi shartlari mana shu yo'sinda bilingan".

Hofiz Hozimiy aytadilar: "Imom Hokimning mana shu gaplari "Sahih"ning ichiga chuqur sho'ng'imagan insonning gapidir. Agar u kitob haqqini berib o'rganib chiqilinadigan bo'lsa, kitobdagi bir qancha hadislar bu da'voga zid ekanligi yaqqol bilinadi".

Hofiz quyida fikrlarini davom ettirib shunday deydilar: " "Sahih al-Buxoriy"ning sharti uning isnodi muttasil va roviysi musulmon, rostgo'y, tadtis qilmagan, muxtalid bo'lmagan, adolat sifati bilan sifatlangan, zobitli (yodda saqlab qolishi vs jamlay olish), hifzi komil, zehni o'tkir, vahmi oz, e'tiqodi sog'lom bo'lishidir. Sahihni (hadisni) rivoyat qilgan kishining mazhabi shuki adolatli roviy o'zining adolatli shayxlaridan hadis rivoyat qilishdagi holati e'tiborga olinadi. SHunda ba'zilarining hadisi sahih sobit (sahihligi sobit bo'lsa), yana ba'zilarinikida qaysidir jihatlari chiqadi. Bu nihoyatda maxfiy bo'lgan boblardandir. Buni aniqlashtirishning, ochib berishning yo'li asil roviy bo'lgan shayxdan rivoyat qiluvchilarning tabaqalarini o'rganishdir. YA'ni har bir tabaqani va ularning darajalarini o'rganish bu narsalarning oydinlashuvining birdan-bir yo'lidir. Misol uchun, Imom Zuhriy ning shogirdlari beshta tabaqadadirlar. Har bir tabaqaning o'zidan keyingisidan ustunligi bor. Masalan, birinchi tabaqa vakillarining hadislarini juda sahih bo'lgan shaxslardir. Imom Buxoriy shulardan hadis rivoyat qilganlar. Ikkinchi tabaqadagilar mustahkamlikda birinchi tabaqaga sherik bo'lsa ham, lekin birinchi tabaqadagilar hifzni, puxtalik va Zuhriyini uzoq vaqt lozim tutishni (Ya'ni ustozlarining yonlarida uzoq vaqt ilm o'rganish) o'zlarida jamlaganlar. Hatto bu kishilarning ichida Imom Zuhriyini safarda ham, muqim turgan joylarida ham lozim tutganlari bor. YA'ni ustozlari qaerda bo'lsa ular

ham shu erda bo'lishgan. Ikkinchi tabaqa vakillarining esa Imom Zuhriyni lozim tutish muddatlari ozroq bo'lgan. SHuning uchun u zotning hadislarini ko'p mashq qilisha olmagan. Bular birinchi tabaqadagilardan ko'ra puxtalik borasida pastroq turadilar. Imom Muslim esa shundaylarni hadislarini ham rivoyat qilganlar”.

Hofiz Hozimiy davomda shunday zikr qiladilar: “Ko‘pincha Buxoriy ikkinchi tabaqaning hadislarini ta’liqan keltirib o‘tganlar, Ya’ni muallaq shaklda keltirib o‘tganlar. Ba’zan esa uchinchi tabaqadagilarning ham hadislarini ham rivoyat qilganlar. Biz hozir yuqorida aytib o‘tganlarimiz Imom Zuhriydan ko‘p hadis rivoyat qilgan kishilar haqida bo‘ldi. Endi bu holatga Imom Nofe’, Imom A’mash, Imom Qatoda va boshqalarning ham shogirdlarini qiyoslab o‘rgansak bo‘ladi. Ammo Zuhriydan ko‘p miqdorda hadis rivoyat qilmagan kishilarga keladigan bo‘lsak SHayxayn (Buxoriy va Muslim) ularning hadislarini rivoyat qilishda siqa, adolat va kam xato qilish sifatlariga e’tibor berishgan. Ammo ulardan kam sonli e’timodi kuchli bo‘lgan kishilar bor, agar bular o‘zlari alohida bir hadis rivoyat qiladigan bo‘lishsa ham uni qabul qilganlar. Misol uchun, YAhyo ibn Said al-Ansoriy shunday zotlardan bo‘lganlari uchun u zotning hadislarini SHayxayn o‘zlarining kitoblarida keltiraverganlar. Lekin yuqoridagi roviylardan ularga suyanish unchalik kuchli bo‘lmaganlari bo‘lsa SHayxayn bu roviylarning yolg‘iz holda qilgan rivoyatlarini qabul qilmaganlar, balki ularga boshqalar ham sherik bo‘lgan hadisni keltirishgan. Ko‘pincha mana shu tarzda davom etgan”.

Iroqiy yana aytadilar: “Misliyatni aniqlashtirishning yo‘li, “Sahih”da undan rivoyat qilinmagan ba’zi roviylar, shu kitobda rivoyati keltirilgan kishilarga teng yoki undan yuqoriroq bo‘lishidir. YA’ni rivoyati keltirilayotgan roviyning darajasi SHayxaynning nazdida o‘zlari undan rivoyat qilayotgan roviyga teng yoki undan yuqori bo‘lishi kerakligidir. Mana shu holdagina “Misliyat” topiladi. Buni yana shunday izohlash mumkin, bir kitobda bir roviydan hadis rivoyat qilinsa va u roviy Buxoriyda bo‘lmasa ham adolat sifatlarida Buxoriy rivoyat qilgan roviy kabi bo‘lsa yoki undan yuqorida tursagina shu holda “misl” bo‘la oladi. Demak, SHayxaynni nazdlarida “Misliyat” bilinishi uchun ikkalalari aniq gap keltirgan bo‘lishlari kerak, Ya’ni “Mening kitobimda kelmagan falonchi falonchining mislidir yoki undan yuqoridir”,deb aytgan bo‘lsalar shunda bu narsa ro‘yobga chiqadi, Ya’ni misliyat topiladi. Endi bunday holni esa topib bo‘lmaydi.

YOki bo‘lmasa “misliyat”ning bilinishining yana bir yo‘li, ta’dilning darajalariga dalolat qiluvchi lafzlar orqali bo‘ladi. Masalan, Imom Buxoriy yoki Muslim o‘zlari hujjat qilib keltirgan ba’zi roviylar haqida u siqadir, u sobitdir yoki soduqdir degan ta’dil lafzlarini keltirgan bo‘lsalar shunda narigi roviyga ham shunday sifat kelgan bo‘lsa Buxoriyninki bilan bir xil bo‘laveradi. YA’ni SHayxayn o‘zlari rivoyat qilgan roviyga biror bir ta’dil lafzini ishlatgan bo‘lsa va bu hol boshqa roviyga ham qo‘llangan bo‘lsa u roviy ham SHayxaynning roviysiga misl bo‘laveradi. Bu gap bilan ular

kitoblarida keltirmagan, ammo ular ta'dil sifatlari bilan sifatlagan roviylar bo'lsa bu roviylar o'zlari hujjat qilib keltirgan roviy darajasida deb dalillanish mumkin. Chunki roviylarni darajalarini bilish yo'lari jarh va ta'dil lafzlari hisoblanadi.

Lekin bu erda ko'pchilik bilmaydigan bir ish bor, uni ochiqlab ketish kerak. O'sha ish shuki, ulamolar hadisni sahingga chiqarishda roviyni adolatdagi yoki muttasillikdagi holatni o'zigagina kifoyalanishmagan, balki roviy u rivoyat qilgan shaxs bilan holati qandayligiga ham qarashgan. Uni ko'p muddat lozim tutganmi yoki yo'qmi. Yana roviy o'zi rivoyat qilayotgan shayxi bilan hamshahar bo'lganmi yoki boshqa joyda turib o'rganganmi, ulamolar shu narsalarga ham e'tibor berganlar. Bu ishlar esa ulamolarni gaplarini o'rganish, ularning tadqiqotlarini kuzatish bilan bo'ladi".

SHayxul Islom aytadilar: "SHayximizning Ibn Daqiyqil Iydga, Imom Zahabiya bildirgan e'tirozlari u qadar o'rinli emas. Chunki Imom Hokim "misl" lafzini omma'noda, Ya'ni isnodlar va matnlardagi haqiqatini ham, majozini ham o'zini ichiga oladigan qilib ishlatganlar. Bunga Imom Hokimning fe'llari dalolat qiladi. Chunki u kishi kitoblarida ba'zan "A'la shartil Buxoriy", gohida "A'la shartil Muslim", ba'zida esa "A'la shartihima", deb zikr qilib keltirganlar. Yana boshqa joylarda hadis matnidan keyin "Isnodi sahih", deb ketganlar. Gohida esa ayrim hadislarni rivoyat qilganlaridan so'ng ikkisiga ham nisbatini bermaganlar. U zotning kitoblarida bunday hadislar juda ko'p.

SHayxul Islom Iroqiyning bu e'tirozlarini no'rin deb bilgan hollarida davom etadilar: "Hammasini qo'ya turaylik, ba'zida ikkalalarining roviylaridan tuzilgan sanad bilan hadis rivoyat qilinadi. Masalan, Simok Ikrimadan, u kishi Ibn Abbas roziyallohu anhumodan rivoyat qiladi. Simok Muslimning shartiga ko'ra faqat Muslim ning rijollaridan. Ikrima esa faqatgina Buxoriy ning rijollaridan. Bu isnod esa ikkala shayxning shartlariga teskari sanad. Chunki Imom Buxoriy Ikrimani roviy sifatida olgan bo'lsalar ham Ikrimadan Simok rivoyat qilgan hadisni qabul qilmaganlar. Ya'ni Imom Hokimning kitoblarida ikki shayxning roviylaridan terib-terib yasalgan sanadlardan rivoyat qilingan hadislar bor.

Endi bundan ham qiziq bir hol bor, Buxoriy va Imom Muslim bir qancha roviylardan hadis rivoyat qiladilar, shu bilan birga bu roviylar ma'lum bir shaxslardan hadis rivoyat qilganlarida zaif hisoblanar edilar.<sup>1</sup> Lekin SHayxayn ular hadis rivoyat qilganda zaif deb bilinadigan sanad bilan emas, boshqa sanad bilan rivoyat qilgan hadislarini kitoblarida keltiradilar. Ikki imomdan keyingi kitoblarda huddi mana shu roviylardan bir hadis rivoyat qilinadi, (Imom Hokimning kitoblarida ham shunday hadislar bor), bu hadis yuqorida aytib o'tilgan, Ya'ni ular hadis rivoyat qilganda zaif sanaladigan tariqdan hadis keltirib qo'yiladi. SHu bilan birga bu roviylarning hammasi

<sup>1</sup> Буни шундай тушунтириш мумкин, масалан Бухорий Абдуллоҳдан ҳадис ривоят қилади, Абдуллоҳни эса Абдурахмондан қилган ривояти заиф ҳисобланар эди, лекин Абдуллоҳни Абдураззоқдан қилган ривояти саҳиҳ чиқади. Нариги санадда Абдуллоҳнинг ҳадиси Абдурахмон туфайли заифга чиқарилади. Шу пайда Шайхайн Абдуллоҳнинг Абдураззоқдан эмас, Абдурахмондан ривоятини қабул қилиб келтирадидлар. (Таржимондан)

“Sahihayn”da yoki ikkalasidan birida bor, faqat tariq boshqa keltirilgan bo‘ladi. Bunday hadislarni esa “Buxoriy yoku Muslimning shartiga ko‘ra” deyish xato.<sup>2</sup> Masalan, Hushaymning Imom Zuhriydan qilgan rivoyati, vaholanki ikkisidan ham SHayxayn hadis rivoyat qilganlar. YA’ni ikki roviy ham ularning shartiga tushadilar, shu bilan bir qatorda ikki roviy bir tariqda kelsa ular SHayxaynning shartiga tushmay qoladi. YA’ni ularning alohida-alohida qilgan rivoyatlari SHayxayn nazdida maqbul, ammo birlashganda bunday emas. Mana shu sababga ko‘ra Imom Buxoriy ham, Imom Muslim ham Hushaymning Zuhriydan emas boshqlardan rivoyat qilgan hadislarini keltirganlar. Sababi Hushaym Zuhriyning oldilariga borib undan yigirmata hadisni olgan, keyin qaytib kelayotganlarida bir kishi u zotga hamsafarlik qilgan. Haligi kishi safar davomida Hushaymdan Zuhriyning hadislarini so‘ragan. SHu payt bir qattiq shamol turganda varoqlarni uchurib yuborgan. SHundan keyin Hushaym yigirmata hadisni yoddan rivoyat qilganlar. Lekin bu hadislar uning xotirasida hali puxta o‘rnashmagandi.

#### FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alloma Abdulaziz ibn Ahmad al-Qurashiy al-Farhoriy. An-Nibros sharhu sharh al-aqid . Dor YOsin. – Istanbul. 2012.
2. Abdulhay Laknaviy. Ar-rof’u vat takmil fil jarh vat-ta’dil. – Bayrut. Lubnon. 1425/2004.
3. SHayxul-islom Zakariyo al-Ansoriy. Fath al-iloh al-mojid bi iyzoh sharh al-aqid. – Misr, Qohira.: Dor usul ad-din. 2018.
4. Ramazon ibn Muhammad al-Hanafiyy. Hoshiya Ramazon Afandi ala sharh al-aqid. –Lubnon. Dor nur as-sobah. 2012.
5. Muslihiddin ibn Muhammad al-Qastaloniy. Hoshiya al-Kastaliy ala sharh al-aqid. –Lubnon. Dor nur as-sobah. 2012.
6. Ahmad ibn Muso SHamsuddin al-Xayoliy. Hoshiya al-Xayoliy ala sharh al-aqid. –Lubnon. Dor nur as-sobah. 2012.
7. Muhammad Husayn az-Zahabiy. At-Tafsir val- mufasssirun. – Bayrut. Maktaba vahba. 2000.
8. Toshkubrozoda. Tabaqot al-fuqaho. – Bayrut. Dor ar-roid al-arabiy. 1970.
9. Abdulhay Laknaviy. Al-favoid al-bahiyya fi tarojim al-Hanafiyya. Matba’a as-sa’oda. 1324 h.
10. Qosim Ibn Qutlubug‘o. Toj at-tarojim fi tabaqot al-hanafiyya. Dor al-qolam. 1992.

---

<sup>2</sup> Яъни юкоридагидек Абдуллохнинг Абдурахмондан ривояти заиф эди. Аммо бир киши келадида, “Имом Бухорий Абдуллохдан ҳадис ривоят қилган экан, мен ҳам ундан ривоят қилавераман”, деб ҳадисни заиф тариқдан келтириб қўяди. (Таржимондан)